

Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligi reytingi

T/r	Mezon va ko‘rsatkichlar	Baholash mezonlari	
		Ko‘rsatkichlarning bajarilish holati (2026-yil II yarim yilligi bo‘yicha)	Yakuniy natija
1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3837-son qaroriga muvofiq jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish holati bo‘yicha			
1.	Jamoatchilik kengashi faoliyatini vazirlik raisi qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomga muvofiq tashkil etish	namunaviy nizom ishlab chiqilgan	“4” ball
2.	Jamoatchilik kengashi tarkibiga Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligida namunali xizmat qilgan mehnat faxriylari, jamoatchilik faoliyatida katta amaliy tajribaga ega nufuzli fuqarolar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlaridan vakillarni kiritish	jamoatchilik kengashi tarkibida shunday vakillar mavjud	“5” ball
3.	Jamoatchilik kengashi tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy veb-saytida e’lon qilish	vazirlik rasmiy veb-saytida e’lon qilingan	“4” ball
4.	Jamoatchilik kengashi faoliyatida ishchi (ekspert) guruhlar tashkil etish va tajribali mutaxassislarni jalb qilish	ishchi (ekspert) guruhlar tashkil etilmagan	“0” ball
5.	Jamoatchilik kengashining yillik tasdiqlanadigan ish rejasining mavjudligi	ish reja shakllantirilgan	“4” ball
2. Jamoatchilik kengashi yig‘ilishlarining soni va shakli			
1.	Jamoatchilik kengashini tashkil etgan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini o‘rganish va uni yaxshilash borasida takliflar ishlab chiqish bo‘yicha jamoatchilik kengashi majlislarini tashkil etish (hisobot davri bo‘yicha)	majlislar tashkil etilganligi va vazirlikka takliflar taqdim etilgan	“4” ball
2.	Davlat organlari faoliyatining ochiq, shaffof ishlashi, amaldorlarning xalq oldida hisobdorligi, davlat tashkilotlarida budjetning oqilona sarflanishining samarali mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish istiqbollari bo‘yicha fuqarolik jamiyati institutlari bilan turli xil tadbirlar tashkil etish (ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy konferensiyalar, “davra suhbatlari”, seminarlar va b.	jamoatchilik kengashi tomonidan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazilgan	“4” ball
3.	Jamoatchilik kengashi tomonidan nufuzli xalqaro tashkilotlar, shuningdek, xorijiy davlatlar fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda faoliyatni yaxshilash, bu borada xorij tajribasini o‘rganish yuzasidan tadbirlar o‘tkazish (bevosita yoki onlayn tarzda)	tadbir o‘tkazilgan	“1” ball
4.	Ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish bo‘yicha jamoatchilik kengashi tashabbusi bilan tashkil etilgan tadbirlar	tadbir o‘tkazilgan	“2” ball

5.	Davlat dasturlari, ijtimoiy sohalar va hududlarni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar ijrosi bo'yicha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan jamoatchilik nazoratini olib borish	jamoatchilik nazorati o'tkazilgan	"2" ball
3. Davlat hokimiyati organlarining o'z faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida yo'lga qo'yishi, o'z yo'nalishlarida dastur va rejalarni ishlab chiqishi, shuningdek, ularni amalga oshirish jarayonlarida jamoatchilik kengashi ishtiroki			
1.	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining o'z ish rejalari (strategiyalar, davlat dasturlari asosida)	xabardor qilingan	"3" ball
2.	Tayyorlangan "Yo'l xaritasi" to'g'risida jamoatchilik kengashini xabardor qilishi	xabardor qilingan	"3" ball
3.	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tarkibiy bo'linmalari tomonidan jamoatchilik kengashini o'z rejalari va faoliyati to'g'risida doimiy xabardor qilib borilishi	xabardor qilingan	"3" ball
4.	Jamoatchilik kengashining ularni tashkil etgan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining muhim masalalarda o'tkazilgan yig'ilishlarida ishtirok etishi	ishtirok etgan	"3" ball
5.	Jamoatchilik kengashining rahbari yoki a'zolarining vazirlik huzuridagi doimiy kollegial organga kiritilganligi	kiritilmagan	"0" ball
4. Jamoatchilik kengashi yig'ilishlarida ko'rilgan masalalarning dolzarbligi va ahamiyati			
1.	Yig'ilishlarda ko'rib chiqilayotgan masalalarning ommaviy ahamiyati, bugungi kundagi dolzarbligini baholash	dolzarb	"4" ball
2.	Jamoatchilik kengashi tomonidan amalga oshirilgan ishlarning qonun hujjatlari bilan ular zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarga muvofiq holatini o'rganish	muvofiq	"3" ball
3.	Yig'ilishlarda ko'tarilgan muammolar bo'yicha takliflar ishlab chiqish	takliflar berilgan	"5" ball
5. Jamoatchilik kengashining ochiqlik va oshkoralik tamoyillariga rioya qilishi, faoliyatining natijalari bo'yicha jamoatchilikka hisobot berib borishi			
1.	Jamoatchilik kengashi faoliyati haqida respublika, viloyat telekanallarida chiqishlar qilish	ishtirok etilgan	"3" ball
2.	Jamoatchilik kengashi faoliyati haqida respublika, viloyat miqyosidagi radio kanallarida chiqishlar qilish	ishtirok etilgan	"2" ball
3.	Jamoatchilik kengashi faoliyati haqida respublika, viloyat miqyosidagi nashrlarda materiallar chiqarish	chop etilmagan	"0" ball
4.	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi saytida jamoatchilik kengashi faoliyatini yoritib borish	ma'lumotlar joylashtirilgan	"4" ball